

**AHAMONIYLAR VA ALEKSANDR MAKEDONSKIYNING O'RTA
OSIYOGA ISTILOCHILIK YURISHLARI.**

*Andijon davlat pedagogika Instituti Ijtimoiy- gumanitar va san'at fakulteti
Tarix yo'nalishi 1- bosqich 101- guruh talabasi
Bahronov Rahmonali Baxtiyor o'g'li*

Annotatsiya

Miloddan avvalgi VI–V asrlarda Eron ahamoniylari manfaati bilan Yunoniston manfaati Kichik Osiyoda to'qnashib qoladi. Har ikkala davlat bu hududda o'z ta'sir doirasini kengaytirish va mustahkamlash uchun, iqtisodiy va siyosiy jihatdan yuqori mavqeni egallash uchun harakat qiladilar. Ana shu niyatni amalga oshirish .

Kalit so'zlar: Xeroniya , Hindikush, Bess, Kiropolis , Baqtriya.

Kirish.

Ahamoniylar va Aleksandr Makedonskiy yurishlari davrida O'rta Osiyo.

Makedoniyalik Iskandar o'z xarbiy yurishlari bilan Bolqon yarim oroli, Kichik Osiyo, Misr, Sirdaryo va Xindistongacha cho'zilgan ulkan hududda o'z sultanatini barpo qildi. Sultanat poytaxti Bobil edi. Bu ulkan davlat Iskandar vafot etishi bilanoq inqirozga yuz tutdi va parchalana boshladi.

Miloddan avvalgi 312 yilda Iskandar davlatining Sharqiy qismi (Kichik Osiyo, Suriya, Eron va O'rta Osiyo) sarkarda Salavka xukumronligi ostida birlashtirildi. Salavkaning xokimiyyati turli xarbiy manzilgoxlarda joylashgan yunon-makedon va makedonlar qurol-yarog'lari bilan qurollangan mahalliy xalqlarning harbiy kuchlariga tayangan edi. Yunonlar o'z xokimiyatlarini mustaxkamlash maqsadida O'rta Osiyo hududlarida bir qancha xarbiy istexkomlar va qal'alar barpo qilgan edi. Bu narsa Aleksandr vaqtidayoq boshlanib, uning o'zi O'rta Osiyoda 12 ta shaharga asos solgan edi. Bu shahar va qal'a istexkomlaridagi yunon- makedon harbiylari qo'riqchi kuch sifatidagi xarbiy kuch bo'lган. Iskandar saltanati qulagach, bu an'analar Salavkiylarda ham davom etdi.

Salavkiylar davlati turli etnik guruhlarni xarbiy kuch ishlatish yo'li bilan birlashtirish orqali tashkil etilgan davlat edi. Davlat boshqaruvining barcha siyosiy, xuquqiy va ijtimoiy yo'nalishlari podsho saroyi bilan bog'liq bo'lib, «podsho saroyi» davlat boshqaruvida katta axamiyatga ega edi. Ahmoniylar kabi, Salavkiylarda ham davlat ishlarini boshqaruvchi devonxona mavjud bo'lgan. Salavkiylar davlatida birmuncha murakkab soliq tartibi mavjud bo'lib, Salavkiylar xukumdorlari o'zlarigacha bo'lgan soliq tartiblarini o'zgartirmay, unga bir qancha qo'shimchalar kiritganlar. Dexxonlardan soliq yig'ib olish satrap xokimining vazifasi edi.

Satraplikning umumiyligi soliq miqdori jamoalardan tushadigan soliq miqdoriga qarab belgilanar edi.

Miloddan avvalgi 293 yil davlatning Sharqiy viloyatlariga Salavka va Spitaman qizi Apamaning o'g'li Antiox xokim etib tayinlandi. Bu narsa Salavkiylarda xokimlarning podsho oilasi bilan qarindoshlik bo'lishi sharti boshqaruvin tizimining asosiy xususiyatlardan biri bo'lganligini ko'rsatadi. Miloddan avvalgi 280 yilda Salavka o'limidan so'ng Antiox podsho bo'lди va davlatni 20 yil davomida boshqardi.

Salavkiylar davlati doimiy ichki kurashlar orasida qoldi. Miloddan avvalgi III asr o'rtalarida undan Baqtriya ajralib chiqadi. Shu vaqtida Salavkiylardan yana bir davlat-parfiya ajralib chiqadi va keyinchalik Sharqdagi eng qudratli davlatlardan biriga aylanadi.

Yunon-Baqtriya davlatining gullab – yashnagan davri miloddan avvalgi III asrning ikkinchi yarmi va II asrning birinchi yarmiga to'g'ri keladi. Bu davlatning poytaxti Baqtra shaxri bo'lgan. Davlat bir necha dexqonchilik viloyat va tumanlarini o'z ichiga olgan. Davlat markazlashgan5 hokimiyatga bo'ysunuvchi boshqaruvin tizimiga ega edi. Podsho yoki davlat hukmdorlari yunon – makedonlardan bo'lib, uni turli yillarda Diodot, Yevtidem, Demetriy va Yevkraditlar boshqarganlar. Davlat boshqaruvin tizimi Iskandar davrida joriy etilgan siyosiy an'analarga asoslangan edi. Podsho hokimiyati harbiy kuchlarga va viloyatlar hokimlari madadiga tayanar edi. Muhim savdo yo'llari bo'ylab harbiy – strategik va iqtisodiy axamiyatga ega bo'lgan joylarda tayanch istehkomlari va qal'alari qurilgan edi.

Gerodot xabar berishicha, "Bu jang varvarlar (massagetlar) ishtirok etgan janglar orasida eng dahshatlisi edi... Kamon o'qlari tugagach, qo'l jangi boshlanib nayza va qilich bilan kurashdilar. Qo'shinlar jangiuzoq vaqt davom etdi. Nihoyat massagetlar g'alaba qozondilar." Kir II qo'shinlarining massagetlar tomonidan tor-mor etilishi mil. avv. 530 yilga to'g'ri keladi. Tarixchi Polien forslarga qarshi kurashgan SHiroq qahramonligi haqidagi afsona to'g'risida xabar beradi. Uning xabariga ko'ra, sak kabilalarining vakili bo'lgan SHiroq ismli cho'pon hiyla yo'li bilan forslarning katta qo'shinlarini suvsiz sahro ichkarisiga adashtirib qo'yadi. SHiroq ham, fors qo'shinlari ham ochlik va tashnalikdan halok bo'ladilar. Mil. avv. 522 yilda ahamoniylar taxtiga Doro I o'tiradi. U taxtga o'tirishi bilanoq Parfiya, Marg'iyona va "saklar o'lkasi"da forslarga qarshi qo'zg'olonlar ko'tariladi. Behistun yozuvlariga qaraganda, 522 yilning oxirida Marg'iyonada ko'tarilgan qo'zg'olonga Frada ismli kishi boshchilik qiladi. Doro I Baqtriya satrapi Dadarshish boshchiligidagi qo'shinlarni qo'zg'olonchilarga qarshi jo'natadi. Qo'zg'olon shavqatsizlarcha bostirilib 55 ming marg'iyonalik halok bo'ladilari. Frada ham qo'lga olinib qatl ettiriladi. "Saklar o'lkasi"dagagi forslarga qarshi kurashga Skunha boshchilik qiladi. 519-518 yillarda bo'lib o'tgan bu kurashda saklar forslar tomonidan mag'lubiyatga uchraydi. Saklarning ko'pchiligi o'ldirilib, ko'pchiligi asir olinadi. Ularning yo'lboshchisi Skunha asir olinib, o'rniga boshqa

yo‘lboshchi tayinlanadi. Xullas, forslar O‘rta Osiyodagi mahalliy aholining qahramonona qarshiligidan qiyinchilik bilan sindirganidan keyingina bu hududlarni batamom o‘zlariga bo‘ysundirdilar.

Xulosa.

Xullas, qayerlik bo‘lganda ham Spitamen O‘rta Osiyoning yerli mahalliy xalq farzandidir. Salavkaiylar avlodidan bo‘lgan shohlar ota tomonidan yunon va ona tomonidan Spitamen avlodidan bo‘lganlar. Kvint Kursiy Rufning asarida Spitamen jismonan baquvvat, jasur, mard va tadbirkor bir kimsa suratida tasvirlanadi. Dastlabki paytda «Aleksandr Spitamenga katta-katta va’dalar beradi, hatto Sug‘diyona hokimligini in’om etmoqchi bo‘ladi. Spitamen esavatanfurushlik qilgandan ko‘ra o‘limni afzal biladi»

Spitamen dastlab masalaning mohiyatiga chuqur baho bera olmasdan, Aleksandrni Turon xalqini ahamoniylar zulmidan ozod qiluvchi xaloskor deb bilgan. Aleksandrning amalda xalqqa o‘tkazgan jabr-zulmi, qilgan yovuzliklari va shafqatsizliklarini o‘z ko‘zi bilan ko‘rgach uning fikri keskin o‘zgaradi. «Aleksandrnomada ham Aleksandrning xalqqa o‘tkazgan zulm-sitamlari quyidagi satrlarda ifodalangan: Ey Aleksandr nadir xohishing, Bayon ayla, bizga bu g‘araz ishing, Urub tig‘ devlarni sahydi. Xullas, qayerlik bo‘lganda ham Spitamen O‘rta Osiyoning yerlimahalliy xalq farzandidir. Salavkaiylar avlodidan bo‘lgan shohlar ota tomonidan yunon va ona tomonidan Spitamen avlodidan bo‘lganlar. Zarafshon daryosidan o‘tish voqeasi ham bu borada jonli misoldir». Arrian bunday ma’lumot beradi: «Makedoniyaliklar daryoda mutlaq, tartibsizlik bilan o‘ta boshladilar. Varvarlar2ular qo‘ygan xatolikni sezib... har tomondan o‘rab oladilar... ularni qayta daryogsiqib tashlaydilar yoki o‘q-yoy bilan otadilar... chorasiz qolgan makedoniyaliklar daryo o‘rtasidagi orolga chiqib oladilar. Skiflar va Spitamen lashkarlari ularni qurshab kamondan otib tashlaydilar, bir qismini asir oladilar, ammo keyincha ularni ham otib tashlaydilar».[3] Darhaqiqat, Aleksandr qo‘shinlari juda katta talafot ko‘rib, Sug‘diyona va Baqtriyadagi qo‘zg‘oltonni bostira olmagan. Unga o‘ziga qarashli viloyatlardan 19 ming yollanma qo‘shin yordamga yetib kelgach, bu isyon bostirilgan. Yunon muarixlarining asarlarida Spitamen bilan birgalikda Aleksandrga qarshi jang qilgan skiflar, baqtriyaliklar, massagetlarning jasorati va ularning ajoyib urfodatlari va madaniyatlari haqida ham qimmatli ma’lumotlar berilgan. Jumladan, Kvint Kursiy Rufning ta’kidlashicha, skiflar boshqa «varvar» xalqlardan farq qiladilar, «ularning fikr ifodalishlari qo‘pol emas, madaniyati ham durust edi». Yana u davom etib yozadi: «Aytishlaricha, ularning orasida donishmandlari ham bor ekan»[4] Kvint Kursiy Rufning qayd qilishicha «skiflarning, hatto nutqi ham jozibador edi. O‘zining go‘zal nutqiga, madaniyatiga ega bo‘lgan skiflarning o‘sha davrlarda o‘ziga xos adabiyoti ham bo‘lgan». Kvint Kursiy Ruf «Aleksandr Makedonskiy tarixi» asarida skiflarning jasurligi va mardligini

ta'riflaydi. Uning yozishicha Aleksandr skiflarning katta bir guruhini asir oladi. «Jismoniy jihatdan baquvvat bo'lgan skiflardan 30 kishini o'limga mahkum etganda, ular o'limdan ham qo'rmasdan, xalq qo'shiqlarini baralla aytib, xursand bo'lib borardi», deydi u. Skiflarning mardligiga qoyil qolgan.

Foydalanilgan adabiyotlar :

- 1.Kvint Kursiy Ruf / Aleksandr Makedonskiy tarixi
- 2.F.Suloymanova /Sharq va G'arb
3. Sh.Karimov /Vatan tarixi
- 4.F.Boynazarov /Antik dunyo